



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGIDAGI O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASI

Abdullayev A'zam Abdiyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Hozirgi davrda davlatning, davlat hokimiyati hamda boshqaruv organlarining asosiy vazifasi mamlakatdagi siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar va fuqarolik jamiyatining endigina shakllanib rivojlanayotgan turli institutlari bilan hamkorlik qilish hamda o'zaro munosabatlarning ilg'or shakllarini izlash zaruratga aylanib bormoqda. G'oyaviy tarbiya orqali iqtisodiy tarbiyani ham yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, fuqarolik jamiyati ham ushbu jarayonlardan chetda qolmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani uzluksiz rivojlantirishimiz zarur".

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, yoshlar ijtimoiy faolligi, sun'iy intellekt, sun'iy intellekt texnologiyalari, ijtimoiy faollik, yoshlar faolligi, fuqarolik madaniyati, demokratiya va yoshlar, onlayn platformalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), jamiyatdagi yoshlar ishtiroki, ijtimoiy tarmoqlar, digital faollik, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, ijtimoiy tashabbuslar, yoshlarni rag'batlantirish, texnologiyalar va jamiyat, innovatsiyalar va yoshlar

ДИАЛЕКТИКА ИЗМЕНЕНИЙ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЁЖИ В РАЗВИТИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Абдуллаев Аъзам Абдиевич

Ташкентский государственный экономический университет, доцент (PhD)

Аннотация

В современный период основной задачей государства, органов государственной власти и управления становится поиск эффективных форм сотрудничества с политическими партиями, негосударственными организациями, социальными группами и различными институтами гражданского общества, которые находятся на стадии формирования и развития. Особое значение приобретает развитие экономического воспитания через идеологическое воспитание. Следовательно, гражданское общество также не может оставаться в стороне от этих процессов. Как отметил Шавкат Мирзиёев: «Для реализации стоящих перед нами масштабных задач необходимо непрерывно развивать национальную идею, которая станет источником нашей силы и мощи».

Ключевые слова: гражданское общество, социальная активность молодежи, искусственный интеллект, технологии искусственного интеллекта, социальная активность, молодежная активность, гражданская культура, демократия и молодежь, онлайн-платформы, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), участие молодежи в обществе, социальные сети, цифровая активность, развитие гражданского общества, социальные инициативы, стимулирование молодежи, технологии и общество, инновации и молодежь.

DIALECTICS OF CHANGES IN YOUTH SOCIAL ACTIVITY IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY

Abdullayev A'zam Abdiyevich

Tashkent State University of Economics, Associate Professor (PhD)

Abstract

In the current period, the main task of the state, public authorities, and governance bodies is becoming the search for advanced forms of cooperation with political parties, non-governmental organizations, social groups, and various institutions of civil society that are still in the process of formation and development. It is highly important to promote economic education through ideological education. Therefore, civil society itself cannot remain outside these processes. As Shavkat Mirziyoyev emphasized: "In carrying out the large-scale tasks set before us, we must continuously develop the national idea that serves as a source of our strength and power."

Keywords: civil society, youth social activity, artificial intelligence, artificial intelligence technologies, social activity, youth activism, civic culture, democracy and youth, online platforms, information and communication technologies (ICT), youth participation in society, social networks, digital activism, development of civil society, social initiatives, youth encouragement, technology and society, innovations and youth.

“Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va boshqa sohalarini rivojlantirish uchun ham har bir fuqaroning erkinligi, uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki zarurligini fuqarolik jamiyatini qaror toptirish jarayoni isbotlab kelmoqda. Bizga ma’lumki, mamlakatning tutgan o’rnini belgilashda, mavqeini aniqlashda nafaqat uning davlat tuzilmasining qudrati, balki shu mamlakatda shakllangan jamiyatning kuchi qanday ekanligi hal qiluvchi o’rin egallaydi” [1; 88-b.].

Mustaqilligimizni mustahkamlashning asosiy omillaridan biri yoshlarning turli sohadagi qiziqishlarini inobatga olishdir. Ularni umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga, milliy g’oyaning vazifalarini bajarishga tayyorlash, yuksak ong darajasini oshirish O’zbekistonning istiqloli haqida qayg’uradigan, o’zining va o’z xalqining, Vatanining qadr-qimmatini, or-nomusini anglab, uni himoya qiladigan, yuksak g’oyalar, yangi zaruriy kashfiyotlar, niyatlar og’ushida mehnat qilib, bor imkoniyatini yurt taraqqiyotiga, eliga baxshida etadigan barkamol avlodni yetishtirishdan iboratdir. Bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo’lgan yangi avlodni, ilm-fan va o’z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlar tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz.

Shu bilan birga, aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo’lgan, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi o’zgarishlar va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy va keng tafakkurli yoshlar avlodini shakllantirish vazifasi ham nihoyatda muhim, albatta” [2; 230-b.].

Jumladan, bugungi kunda raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes va elektron tijoratni nazarda tutuvchi raqamli iqtisodiyotning shakllanishi an’anaviy tus olganligini ko’rishimiz mumkin. O’zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish maqsadida “Raqamli iqtisodiyot — 2030” [3] strategiyasi ishlab chiqildi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida elektron hukumatni yanada rivojlantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bunda mamlakat miqyosida sifatli va talab yuqori bo’lgan elektron davlat xizmatlarini yanada kengaytirish, bosqichma-bosqich barcha davlat xizmatlarini raqamli shaklga o’tkazish, shu jumladan, ko’rsatilayotgan avtomatlashtirilgan xizmatlar ulushini 2030-yilga qadar 90 foizga yetkazish lozim” [4; 184-b.].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fuqarolik jamiyati haqida turli konsepsiyalar, qarashlar mavjud, ularni yuqorida qayd etib o’tdik. Shu konsepsiyalar ichida fuqarolik jamiyati fuqarolarining kelajakka bo’lgan ishonchini mavjudlik (ekzistensialistik) va antropologik jihatdan talqin etilganlari ham kam emas. Ularda insoniyatning kelajagi o’z-o’zini anglagan holda faoliyat yuritishi va rivojlanish yo’lini tanlash paytida to’g’ri qarorlarni qabul qilishi lozimligi uqtirilgan. Shu jihatdan yondashadigan bo’lsak, fuqarolik jamiyatiga faqat zaruriyatdan kelib chiqib emas, balki tasodifni ham inobatga olgan holda qarash darkor. Fuqarolik jamiyatining taqdiri pirovard natijada shu jamiyatda yashovchi fuqarolarning ko’p omilli xatti-harakatlari, dialektik o’zgarishlarga, boshqacha aytganda, nohiziqli o’zgarishlarga tayyorligiga ham bog’liq.

Ma’lumki, sinergetika doirasida ham ijtimoiy munosabatlar o’rganilmoqda. Shunday tadqiqotlar qatoriga I. Prigojin, I. Sengers, G. Xaken, V. I. Arshinov, Ye. N. Knyazova, S. P. Qurdoshevlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Ushbu olim va faylasuflar ijtimoiy-siyosiy hayotdagi bifurkatsion bo’linishlar hamda fluktuatsion o’zgarishlarga alohida diqqatni tortmoqdalar. Boshqa olim A. P. Nazaretyanning fikricha, fuqarolik jamiyatidagi ijtimoiy o’zgarishlar nafaqat murakkab xarakterga ega bo’ladi, u ko’p ma’noli tasodiflarni ham qamrab oladi. Bu soha o’zida klassik, noklassik, postnoklassik ratsionallik elementlarini ham aks ettiradi [5; 184-b.].

Rus olimlaridan fiziolog I. P. Pavlov: “Umrim bo’yi aqliy va jismoniy mehnatni yaxshi ko’rib kelganman va yaxshi ko’raman ham, hatto jismoniy mehnatni ko’proq yaxshi ko’raman. Jismoniy mehnat oliy nerv faoliyati buzilgan taqdirda eng katta davo bo’lib xizmat qiladi”, — deydi. Yoki boshqa bir alloma J. Bellers: “Mehnat hayot chirog’iga yog’ quyib turadi”, — deydi.

Ba’zi mehnatni yoqtirmaganlar jinoyatga qo’l uradilar. Jinoyat bu, avvalo, inson faoliyati orqali tabiat va jamiyat, oila, shaxs uchun salbiy va ashaddiy zarar keltiruvchi harakatlardir. Ha, jinoyat zarar

keltiruvchi, inson hayotini zaharlovchi, uning qonini soʻruvchi “zuluk”dir. Jinoyatni tushungan insonlar jinoyat qilsalar, ularni kechirish ancha qiyin. Jinoyat javobsiz qolmas. “Jinoiy jazo jinoiy-huquqiy zaruriyat hisoblanadi”.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi

Yangi Oʻzbekistonni barpo etish maqsadida harakat qilinar ekan, hozirgi zamonning shiddat bilan oʻzgarib borishini inobatga olib, taraqqiyotning orqasida emas, balki uning oldingi saflarida boʻlish taqozo etiladi. Buning uchun har qanday salbiy harakat oqibatlarini va muammolarni oldini olish, yetuk insonlarni tarbiyalashning dolzarbligiga eʼtiborni qaratish talab qilinadi. Fuqarolik jamiyati ham ushbu harakatlarsiz barqaror rivojlana olmaydi. Qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukmron boʻlsa, muhim masala va muammolar bemalolchilikka tashlab qoʻyilsa, ayonki, yuksak maʼnaviyat ham jonsiz va zaif jarayonga aylanadi. Agar bu holatga oʻz oʻrnida ahamiyat berilsa, hushyorlik va jonkuyarlik, aql-idrok, tafakkur ustuvor boʻlsa, u makonda maʼnaviy-axloqiy fazilat yengilmas kuchga aylanadi. Ayniqsa, yoshlarimizni bugungi globallashuv davrida, axborot tezligi oshib borayotgan bir davrda ularning vaqtlarini toʻgʻri taqsimlashimiz, maʼnaviy tarbiyasini yuksaltirishda kitobga boʻlgan mehrini oshirishimiz muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, Prezident Sh. Mirziyoyev taʼkidlaganidek, “Yoshlar taʼlim-tarbiyasi haqida gapirganda, ularning kitobga mehri pasayib, bolalarimiz koʻp vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda oʻtkazayotganini alohida taʼkidlamochim. Meni toʻgʻri tushunishlaringizni istayman, men Internetga qarshi emasman. Bugungi kunda axborot tarqatish, axborot almashishning tezligi va mukammalligi boʻyicha Internetning oʻrnini bosadigan boshqa vosita yoʻqligini albatta yaxshi bilaman.

Ammo farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan oʻtgan, yuksak maʼnaviyat manbai boʻlgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki biz uchun yot boʻlgan gʻoyalarni yoshlarimiz ongiga singdirayotgan zararli axborotlar asosida shakllanishiga men mutlaqo qarshiman” [6; 469-b.].

Ayniqsa, yosh avlod ushbu jarayonlarni, ochiqroq aytganda, tahlikalarni tahlil qila olishga oʻrganishi talab qilinadi. Qanday toʻsiqlar boʻlmasin, yoshlardan ularni yengib oʻtib, tanlagan yoʻldan orqaga chekinmaslikka chorlash asosiy maqsadlaridan boʻlishi kerak. Shu jihatdan maʼnaviy-axloqiy sohaga tizimli yondashish — yoshlarni Yangi Oʻzbekiston mustaqilligini mustahkamlashga qodir, yuksak maʼnaviy-axloqiy sifatlarga ega shaxsni, yuksak darajali xodimlarni tarbiyalashga yoʻnaltirilgan boʻlishi zarur.

Barcha maʼrifiy soha — oʻqituvchi-pedagoglar, oʻquvchilar, talabalar, moliya, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari bu masʼuliyatli vazifada birlashishlari orqali zafarli natijaga erishish mumkin. Ularning barchasida mustahkam, alohida bogʻlangan holda, oʻzaro aloqadorlikka erishgan taqdirda marraga erishish mumkin. Salbiy taʼsirlarga qarshi turish uchun yoshlarda mafkuraviy mustahkamlikni shakllantirish, ularning fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi faol ishtirokini kuchaytirish zarur. Mafkuraviy tahdid millat, jamiyat yoki davlatning osoyishtaligi va barqarorligini buzishga qaratilgan nazariy qarashlarni qamrab oladi. Bunday tahdidlar ijtimoiy-siyosiy hamjihatlikni buzishga qaratilgan boʻlib, fuqarolar va umuman jamiyat xavfsizligiga xavf tugʻdiradi.

Xulosa:

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish murakkab jarayon. Hozirgi va undan oldingi jamiyatlar taraqqiyotidan xabardor insonlar bu murakkablikni tushunib yetadilar. Ammo yangiliklardagi toʻsiqlarni koʻrib, bizga yangi jamiyatning “keragi bormi?” deyuvchilar ham topiladi. Bu tabiiy, albatta. Har qanday yangilik dastlabki koʻrinishda ziddiyat va qarama-qarshiliklarga uchraydi.

Shu munosabat bilan mazkur bobda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishning zaruriyat va tasodifiylik dialektikasiga eʼtibor qaratildi. Yangi jamiyatda zaruriyat va tasodiflar oʻrtasidagi munosabatlar tahlil etildiki, yoshlar faolligida mazkur dialektik jarayonlar qanday kechadi, nimalarga eʼtibor berilishi haqida soʻz yuritilib, xulosalar chiqarildi. Yoshlarning iqtisodiy-ijtimoiy sohalardagi faoliyatlari tahlil qilindi. Jamiyat taraqqiyotining “lokomotivi” boʻlgan iqtisodiy jarayonlarga yoshlar qanday munosabatda boʻlishlarining nazariy va amaliy jihatlari ochib berildi. Barcha faoliyat albatta, har qanday insonning, ayniqsa, yoshlarning maʼnaviy-axloqiy faoliyatiga ham bogʻliq. Shuni nazarda tutib, yoshlar faoliyatida uchraydigan baʼzi maʼnaviy-axloqiy fazilatlar haqida soʻz yuritildi.

Ushbu fazilatlar milliy urf-odatlar, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanganligi va yoshlarning ularga sodiqligi ham ular faoliyatining ajralmas qismi boʻlishi darkor, deb koʻrsatildi.

Fuqarolik jamiyati rivojida yoshlar ijtimoiy faolligining oshishi borasida olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Fuqarolik jamiyati jamiyat subyektlarining eʼtiqodi va faoliyatlarini birlashtiruvchi makondir.

- Yoshlarning ijtimoiy faolligi esa davlat va jamiyatning rivojlanishi haqidagi yo‘l-yo‘riqlarni tushunib, hayotga tatbiq etishida ko‘rinadi.
2. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish mavsumiy emas, balki doimiy faollikni talab qiluvchi jarayondir. Shu jihatdan faol yoshlar jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida faoliyat yuritib, obyektlarning zamon talablari darajasida qadam tashlashida ko‘maklashadi. Faol, dunyoqarashi keng, bilimli yoshlar mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni to‘g‘ri tahlil qila oladi.
 3. Fuqarolik jamiyati rivojida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishning ilmiy-nazariy metodologik asoslarini ko‘rsatib berishdan avval fuqarolik jamiyati tushunchasining tadrijiy bosqichlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.
 4. Yangi O‘zbekistonni barpo etish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda yoshlar faolligini oshirishning xususiyatlariga e‘tibor berish zarur. Axborot va internet tarmoqlaridan foydalanish, ularning ijobiy va salbiy tomonlariga e‘tibor berish akademik tadqiqotlar asosida turmog‘i darkor.
 5. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, uni barcha ijtimoiy institutlar tizimining o‘zaro hamkorligi bilan uzviylikda hal etishni takomillashtirish muhim omil sifatida amal qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qadirov M. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning obyektiv va subyektiv omillari: fal. fan. bo‘yicha fal. doktori (PhD) ... dis. — T., 2019. — 88 b.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. — 230 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni.
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. — 184 b.
5. Агрессия, мораль и кризисы в развитии мировой культуры // Синергетика исторического прогресса. — М., 1996. — С. 184.
6. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. — T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. — 469 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2023. — 72 b.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid siyosati to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasi.
9. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017. — 500 b.
10. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2020. — B. 230–231.
11. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. — Toshkent: Sharq, 1998. — 6 b.
12. Илин М.В., Коваль Б.И. Две стороны одной медали: гражданское общество и государство // Полис. — 1992. — № 1–2.